YANGI O‘ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK TIZIMINING O‘RNI

Xikmatullayev Umurjon Uchqunjonovich
Toshkent Xalqaro universiteti
Yurispudensiya yo‘nalishi 2 – kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Bilolov Abbos Bilolovich** (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kiber huquq tushunchasi va belgilari, mazkur huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarni huquqiy ta’minlash kiber huquq sohasiga oid mintaqaviy kelishuvlar, kiberxavfsizlik tushunchasi va huquqiy asoslari hamda kibermakondagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalarning ayrim jihatlari yoritilgan.Yangi O‘zbekiston sharoitida kiberxavfsizlikning tizimli asoslari davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategik dasturlar va zamonaviy raqamli islohotlar doirasida axborot makonini himoya qilishning dolzarbligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Huquqiy tizim, kiber huquq, kiberxavfsizlik, kiberhimoya, kiberxavfsizlik obyekti, kiberjinoyatlar, APK fayllar.*

Hozirgi jadallik bilan taraqqiy etayotgan davlatlar bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasida ham huquqiy tizimning qanchalik mustahkam ekanligi mazkur davlatlar ichki va tashqi munosabatlarda naqadar qudratli ekanliklarini namoyish etib kelmoqda. Bir fransuz huquqshunosining shunday gaplari bor edi, ‘‘ Rivojlanish bu kamchiliklar ko‘zgusidir ‘‘. Albatta bu so‘zlarning isbotini biz har joyda va har sohada ko‘rishimiz mumkin. Rivojlanish bo‘lgani juda yaxshi agar bu foydali sohalar va yo‘nalishlarda bo‘lsa ammo guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek hozirda qo‘shtirnoq

ichidagi sohalar masalan jinoyatchilikni ham chetlab o‘tmayapti. XX asrning 60 yillarida kompyuter rivojlanishi bilan paydo bo‘ldi va XXI asr boshlariga kelib yangi jinoyatchilik ya’ni ,, Kiber jinoyat ‘‘ nomi ostida firibgarlikning zamonaviy turi o‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi va bu jinoyatchilikning kirib kelishi zamirida insoniyat juda katta bir muammoga yuz tutdi.

Bugun hayotimizning barcha sohalariga kirib kelgan axborot kommunikasiya texnologiyalari tizimini rivojlantirish, bu sohaga oid xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda ishtirok etish hamda mazkur sohani zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilishni taqozo etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi, jamiyat faoliyatining keng sohalarida turli kompyuter texnologiyalar bilan ta’minlanadigan axborot xizmatlarining joriy qilinishiga olib keldi. Bu o‘z navbatda yangi kiber huquq sohasining paydo bo‘lishiga sharoit yaratdi. Kiber huquq – axborotlashtirish axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga hamda himoya qilishga qaratilgan huquq sohasidir. Va bugungi kunda ko‘plab yoshlarga kiber huquq bo‘yicha bilim va malakalar berib kelinmoqda kiber jinoyatlarga qanday kurashish kerak, qanday profilaktik ishlarni amalga oshirish kerakligi o‘qtirilmoqda buning zamirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonivich Mirziyoyev tashabbusi bilan Kiber xavfsizlik universiteti tashkil etildi u ilm dargohida internet sohasida amalga oshiriladigan jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha talabalarga bilim berilib kelmoqda. Kiberjinoyat — kompyuter va tarmoqning birgalikdagi aloqasi ostida sodir etiluvchi jinoyat turi. Kompyuter jinoyat paytida maqsadli yo‘naltirilgan qurol vazifasini bajarib beradi. Kiberjinoyat kimningdir xavfsizligi va moliyaviy saviyasiga zarar yetkazish maqsadida sodir etiladi. **Kiberxavfsizlik** – bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar va ma’lumotlarni ruxsatsiz kirishdan, foydalanishdan, oshkor qilishdan, buzilishdan,

o‘zgartirishdan yoki yo‘q qilishdan himoya qilish amaliyoti. U nafaqat biznes va davlat tashkilotlari uchun, balki har bir inson uchun ham dolzarb masaladir. Buning birgina misoli tariqasida, 2022-yilda toshkentliklar kiberjinoyatlardan 45,2 mlrd so‘m zarar ko‘rdi. Toshkentda fuqarolarning bank kartalaridagi pullarini aldov yo‘llari bilan o‘zlashtirish holatlari keskin oshdi. 2022-yilda bunday kiberjinoyatlar oqibatida toshkentliklar kamida 45,2 mlrd so‘m zarar ko‘rgan. Bu pullarning bor-yo‘g‘i 9,2 mlrd so‘mga yaqini undirib berilgan. Kiber jinoyatlar quyidagi uslublarda sodir etilmoqda:

1. Masalan, telefonda rusiyzabon shaxs o‘zini bank yoki mobil to‘lov tizimi xodimi deb tanishtirishi mumkin. U fuqaroning bank plastik kartasiga xakkerlar tomonidan kiberhujum uyushtirayotgani va shunga o‘xshash boshqa yolg‘on ma’lumotlarni aytib ishontiradi. Keyin uning kartasi haqidagi ma’lumotlarni olib, pullarni o‘zlashtiradi.

2. Bank yoki mobil to‘lov tizimlarining soxtalashtirilgan saytlari orqali “Foizsiz onlayn kredit” va shunga o‘xshash odamlarga qiziq (feyk) xabarlar Telegram, Instagram va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan turli havolalar kela boshlaydi.

3. Jinoyatchilar OLX platformasida uyali telefon apparati, dam olish maskanlari yoki boshqa buyumlarni arzon narxlarda savdoga qo‘yish orqali fuqarolarning qiziqishini o‘yg‘otishi mumkin.

4. Internet do‘konlarining soxtalashtirilgan ilovalarida fuqarolarni aldov yo‘li bilan ro‘yxatdan o‘tkazish ham hozirgi jinoyat usullaridan biri hisoblanadi.

5. Davlat tomonidan moddiy yordam puli berilayotgani haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabar kela boshlaydi. Hozirda prezidentning soxtalashtirilgan saytlari orqali fuqarolarni “chuv tushirish” ommalashmoqda.

6. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini treyderlik bilan shug‘ullanuvchi shaxs deb tanishtirib, pul mablag‘larini ikki va undan ortiq barovar ko‘paytirib berish haqidagi aldovlari bilan fuqarolarning ishonchiga kirish orqali ularning pullari o‘zlashtirilmoqda.

7. Jinoyatchilar Telegram orqali viloyatlararo kirakashlik bilan shug‘ullanuvchi xaydovchilarning ishochiga kirib, ularni aldashi mumkin. Misol uchun: viloyatlararo qatnovchi taksichilarning Telegram guruhiga noma’lum shaxs uning plastik karta hisobiga pul yuborishi to‘g‘risida aytib, manzilga yetib kelganda uni naqd ko‘rinishda berishga ishontiradi.

8. PUBG, WORLD OF TANK internet o‘yinlarida kuchaytirilgan akkauntni savdoga qo‘yish bilan yoshlarning ishonchiga kirayotganlar ham mavjud.

9. Ijtimoiy tarmoqlarda “arzon tilla buyumlar sotilishi to‘g‘risida’’gi yolg‘on e’lonlarni qo‘yish orqali fuqarolarning ishonchiga kirib, ularning mablag‘larini o‘zlashtirayotganlarni ham misol keltirish mumkin.

Kiberjinoyatlar axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida, kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda sodir etiladi. Masalan, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar turli EHM, apparat vositalari, periferiya (atrof) qurilmalari va aloqa liniyalaridan foydalanilgan holda sodir etilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, jinoyatning sodir etilish joyi haqidagi masalaning qo‘yilishiga sabab bo‘ladi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridagi vakillarni birlashtirgan jahon axborot tarmog‘i (Internet)ning yaratilishi qilmishni zararli oqibatlar kelib chiqadigan joydan uzoqda sodir etishga ham imkon beradi. Binobarin, axborot texnologiyalari sohasidagi formal tarkibli (moddiy oqibatsiz) jinoyatlarning sodir etilish joyi — ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan davlat hududi, moddiy tarkibli jinoyatning sodir

etilish joyi esa oqibatlar yuz bergan (axborot yo‘q qilib yuborilgan, modifikasiyalashtirilgan, to‘sib qo‘yilgan, nusxa ko‘chirilgan) mamlakat hududi hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan internet jahon axborot tarmoqlaridan cheklanmagan tarzda foydalanishga fuqorolarimizga sharoitlar yaratib berilishi natijasida bundan kiber jinoyatchilar o‘zlarining jinoiy rejalarini amalga oshirmoqda va bu jinoyatlar insonlar iqtisodiy ahvollariga ko‘rinmas zarba bergan holda oilaviy shart-sharoitlarini yomonlashtirib qo‘ymoqda. Britaniyaning Comparitech tadqiqot kompaniyasi tahlilchilarining kiberxavfsizlik darajasi bo‘yicha dunyo davlatlari reytingi natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston kriptomaynerlar hujumiga eng ko‘p uchraydigan mamlakat deb topilib, 60 ta davlat ichida 56-o‘rinni egallagan. Dunyoning rivojlangan davlatlari qatori O‘zbekistonda ham kiberxavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi qarori bilan davlat unitar korxonasi shaklida «Kiberxavfsizligi markazi» tashkil etildi. Kiberxavfsizlik sohasiga tegishli 17 ta qonun hujjati, Prezidentning 9 ta farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori, shuningdek tegishli normalar va ko‘plab idoralararo me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Milliy qonunchilik bilan tartibga solingan, kibermakondagi munosabatlarning xavfsizligi, shuningdek, amaldagi O‘zbekiston Respublikasining jinoyat va ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchiliklar bilan ham ta’minlanadi. Ushbu qonunlarda axborot texnologiyalar sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni va aniq jazolarni nazarda tutuvchi alohida moddalar keltirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining moddalarida nazarda tutilgan, axborot kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi munosabatlarga tahdid solayotgan huquqbuzarliklarning aksariyati,

axborot tarmog‘idan noqonuniy foydalanish, axborot tarmog‘idan foydalanish qoidalari va standartlarini buzish hamda mazkur tarmoqdan foydalangan holda ta’qiqlangan axborotlarni tarqatish bilan bog‘liqdir. Bu o‘z navbatida, axborot tarmog‘idan foydalanayotgan barcha foydalanuvchilardan bu kabi qilmishlarni sodir etmaslik uchun ehtiyot bo‘lishlarini taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda (keyingi o‘rinlarda – MJtK deb yuritiladi) axborot xavfsizligiga qarshi ma’muriy huquqbuzarliklarga, jumladan, axborotdan foydalanish qoidalarini buzish (MJtK 155-modda), kompyuter tizimidan foydalanish qoidalarini buzish (MJtK 151 -modda), ommaviy axborot vositalari mahsulotlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash va tarqatish (MJtK 218-modda) kiradi. APK fayllarini jo‘natish orqali o‘z jinoiy qabih maqsadlarini amalga oshirmoqdalar. Ular o‘z yaqinlaridan kelgan APK fayllarni ochish natijasida serverdagi shaxsiy ma’lumotlarini kiber jinoyatchilar qo‘llariga berib qo‘yishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi jamiyatga yengilliklar yaratgani kabi, yangi xavf-xatarlar – xususan, kiberjinoyatchilikning keskin kuchayishiga ham sabab bo‘lmoqda. Yuqorida aytib o‘tilganidek fransuz huquqshunosining “rivojlanish – bu kamchiliklar ko‘zgusidir” degan fikri bejiz emas. Chunki har qanday ijobiy taraqqiyot bilan birga uning soyasida zarar yetkazuvchi illatlar ham ildiz otib boradi. O‘zbekistonda raqamli sohaning kengayishi, internetdan cheklanmagan tarzda foydalanish imkoniyatlarining berilishi ham ayrim jinoyatchilar tomonidan suiiste’mol qilinib, fuqarolarning moliyaviy va shaxsiy xavfsizligiga tahdid tug‘dirib kelmoqda. Bugungi kunda kibermakon jinoyatlarining o‘sishi bank kartalaridan noqonuniy pul yechish, yolg‘on bank xodimi sifatida qo‘ng‘iroq qilish, zararli APK-fayllar tarqatish kabi usullar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat alohida fuqarolarning, balki

jamiyatning iqtisodiy barqarorligiga ham jiddiy zarar yetkazayotgani hech kimga sir emas. Shu bois milliy qonunchilikning axborot xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgani, jinoyat va ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normalarning takomillashtirilishi eng muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo qonunchilikning o‘zi yetarli emas — har bir foydalanuvchi internet madaniyatiga rioya qilishi, o‘z shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishi va firibgarlikning turli usullaridan xabardor bo‘lishi kerak va shart. Demakki, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faqat davlat organlarining vazifasi emas, fuqaroning ya’ni siz -u bizning ongimiz, ehtiyotkorligimiz va mas’uliyatliligimizni talab qiladigan umumiy jarayon desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Faqat shundagina jamiyatimizda zamonaviy texnologiyalardan xavfsiz, samarali va barqaror foydalanish imkoniyati ta’minlab beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kiber huquq – huquq sohasi sifatida: risola / tuzuvchilar R.R.Shakurov, M.M.Vohidov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 3, 20, 21, 23 betlar.
2. www.gazeta.uz/oz/2023/02/21/cyber/ .
3. 60 davlat ichida 56-o‘rin: O‘zbekiston – kriptomaynerlar hujumiga eng ko‘p uchraydigan mamlakat.
4. https://lex.uz/docs/-6615573 .
5.https://library-tsul.uz/ru/kiberxavfsizlikning-kundalik-hayotimizdagi-ahamiyati-va-huquqiy-jihatlari/ .